

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MONOPOLIYAGA QARSHI
KURASHISH QO'MITASINING
QASHQADARYO VILOYATI
HUDUDIY BOSHQARMASI**

Qarshi sh., Xonobod ko'chasi, 46
Tel: 75-225-11-17, e-mail: qa@antimon.gov.uz



**ANTIMONOPOLY COMMITTEE
OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN
KASHKADARYA REGIONAL
DEPARTMENT**

46, Xonobod street, Karshi
Tel: 75-225-11-17, e-mail: qa@antimon.gov.uz

KO'RSATMA

"21" noyabr 2022 yil.

01-02/111-sonli ish

Qarshi sh.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasining Raqobat va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzilishi yuzasidan ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus komissiyasining 2-tarkibi tomonidan Qashqadaryo viloyat teri-tanosil kasalliklari shifoxonasiga nisbatan qo'zg'atilgan 01-02/111-sonli ish bo'yicha 2022 yil 21-noyabrdagi qabul qilingan qarorga asosan Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseriga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 12 oktabrdagi 225-son qarori bilan tasdiqlangan Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida nizomning 27 va 33-bandlariga asosan

KO'RSATMA BERADI:

1. Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseri (INN: 200666811, Manzili: Qashqadaryo viloyati, Qarshi sh., O'zbekiston ko'chasi, 85-uy) O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini 10-moddasi "Raqobat va xolislik prinsipi" 2 xatboshisi, 20-moddasi "Xarid komissiyasi" 2 xatboshisi, 46-moddasi "Davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar" 1-band 2-xatboshisida belgilangan talablar hamda O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunini 14-moddasi ("Tanlov savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar" moddasini birinchi xatboshisi, ya'ni savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish) qonunbazarlik holatlari buzilganligi holati (belgisi)ni bartaraf qilsin va kelgusida yo'l qo'ymasin.

2. Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseri (INN: 200666811, Manzili: Qashqadaryo viloyati, Qarshi sh., O'zbekiston ko'chasi, 85-uy) O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini 10-moddasi "Raqobat va xolislik prinsipi" 2 xatboshisi, 20-moddasi "Xarid komissiyasi" 2 xatboshisi, 46-moddasi "Davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar" 1-band 2-xatboshisida belgilangan talablar hamda O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunini 14-moddasi ("Tanlov savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar" moddasini birinchi xatboshisi, ya'ni savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish)ga kelgusida yo'l qo'ymasin, shuningdek Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanserining 174678-raqamli lot bo'yicha dispanser hududida tashkilot bino va inshoatlarini joriy ta'mirlash ishlari uchun rasmiylashtirilgan 2022 yil 9 noyabrdagi tanlov bayonini 20 kun muddatda bekor qilsin va qayta tanlov o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari maxsus portaliga e'lon bersin.

3. Ko'rsatma talablarini bajarish uchun 20 (yigirma) kun muddat berilsin hamda amalga oshirilgan ishlar haqida hududiy boshqarmaga 2022-yilning 12-dekabr kuniga qadar yozma axborot taqdim etsin.

4. Monopoliyaga qarshi organga axborot taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik yoxud ularga bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni taqdim etish yoki Monopoliyaga qarshi organning qoidabuzarliklarni tugatish to'g'risidagi, dastlabki holatni tiklash haqidagi, ko'rsatmalarini bajarishdan bo'yin toyplash, o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarmaslik O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 178-moddasi birinchi va uchinchi qismlari hamda Jinoyat kodeksining 183-moddasiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin.

5. Mazkur ko'rsatma ustidan bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi hay'ati yoki tegishli ma'muriy sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Maxsus komissiya raisi



S.Sadikov



QAROR

"21" noyabr 2022 yil.

01-02/111-sonli ish

Qarshi sh.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasining Raqobat va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzilishi yuzasidan ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus komissiyasining 2-tarkibi komissiyasi raisi - Qashqadaryo viloyat Monopoliyaga qarshi kurashish hududiy boshqarmasi boshlig'i S.Sadikov, komissiya a'zolari, hududiy boshqarma boshlig'i o'rinnbosari - Tovar va moliya bozorlarini tahlil qilish va savdolarni nazorat qilish bo'limi boshlig'i - A.Oripov, Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish, narx va tariflar va ularning qo'llanilishini nazorat qilish bo'limi boshlig'i - M.Xamraev, Mahalliy hokimiyat organlari qarorlarining raqobat muhitiga ta'sirini baholash va nohalol raqobatga chek qo'yish bo'limi boshlig'i O'.Himmamatov, Bosh yuriskonsult - M.Majidovlar Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseri (INN: 200666811, Manzili: Qashqadaryo viloyati, Qarshi sh., O'zbekiston ko'chasi, 85-uy)ga nisbatan o'rganish natijalari bo'yicha materiallarni ko'rib chiqib, ularni ushbu xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini 10-moddasi "Raqobat va xolislik prinsipi" 2 xatboshisida (*Davlat xaridlarining xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishdagi, shuningdek eng maqbul variant foydasiga yakuniy qaror qabul qilishdagi beg'arazlikni nazarda tutadi*) deb ko'rsatib o'tilgan, 20-moddasi "Xarid komissiyasi" 2 xatboshisida (*Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalgalashirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat*) bo'lishligi, 46-moddasi "Davlat xaridlari jarayonidagi cheklar" 1-band 2-xatboshisida (*ishtirokchilarni kamsitishga, boshqa ishtirokchilarga zarar yetkazgan holda bir ishtirokchiga imtiyozlar yoki preferensiyalar taqdim etishga, bundan ushbu Qonun 16-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;*) ekanligi ko'rsatib o'tilgan hamda O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunini 14-moddasi ("Tanlov savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar" moddasini birinchi xatboshisi, ya'ni savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish) talablari buzilganlik holati bo'yicha qo'zg'atilgan 01-02/111-sonli ishni ko'rib chiqishda Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseri hisobchisi Yusupov Jamshid Bahodirovich ishtirokida ko'rib chiqib, quyidagilarni

ANIQLADI:

Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan Telegramm ijtimoiy tarmog'i orqali chiqqan maqola yuzasidan Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseri tomonidan dispanser hududida tashkilot bino va inshoatlarini joriy ta'mirlash ishlari uchun o'tkazilgan tanlov savdosini noholis o'tkazilganligi bo'yicha qilingan maqola bo'yicha o'rganish o'tkazilgan.

Ijtimoiy tarmog‘dagi maqolada etender.uzex.uz elektron savdo tizimi orqali bo‘lib o‘tgan lot raqami 174678 (obyekt nomi “dispanser hududida tashkilot bino va inshoatlarini joriy ta‘mirlash”) tanlovidagi tendir g‘olibining asosiy faoliyat turi qurilish emas, oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ixtisoslashmagan ulgurji savdosи, qurilish-pudrat tashkilotlari elektron reytingida ham mavjud emasligi va ushbu tanlov savdosini o‘rganib chiqish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘rganish jarayonida quyidagilar aniqlangan:

Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseri tomonidan Davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalı (etender.uzex.uz)ga 2022 yil 1 noyabr kuni qiymati 275 000 000 so‘mlik (lot raqami 174678) dispanser hududida tashkilot bino va inshoatlarini joriy ta‘mirlash ishlari uchun e’lon berilgan hamda 2022 yilning 9 noyabrida ushbu lot bo‘yicha tanlov savdolari bo‘lib o‘tgan.

Mazkur tanlash e’lonlarida ishtirokchilarning taklifi balli usulda (har bir talab bo‘yicha individual tartibda “0” balldan – “5”, “7” va “8” ballgacha bo‘lgan miqdorda) baholanishi belgilangan bo‘lsada, biroq, ishtirokchilarga eng past va eng yuqori ballning qo‘yilishiga oid aniq mezonlar oldindan e’lon qilinmagan holda (aniq tavsifi mavjud bo‘lmagani holda) baholanishiga yo‘l qo‘yilgan.

174678-lot raqami bilan dispanser hududida tashkilot bino va inshoatlarini joriy ta‘mirlash ishlari uchun o‘tkazilgan tanlovda ishtirok etish uchun 3 nafar talabgor “Qilichbek plyus og‘abek” MCHJ, “Emergensy servisi” MCHJ va “Yan ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish” XKlari taklif taqdim etgan va tanloving texnik qismi 14 ta mezonga asoslanib baholangan.

Jumladan, uchinchi mezon, “Bajarilgan ishlarni Forma-3 hisoboti va topshirish qabul qilish dalolatnomasi” shartiga ko‘ra baholashda “Qilichbek plyus og‘abek” MCHJga 6 ball, “Emergensy servisi” MCHJ 8 ball va “Yan ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish” XKga 5 ball bilan baholangan. Mazkur baholash jarayoni o‘rganilganda ushbu baholash shartiga “Qilichbek plyus og‘abek” MCHJ tomonidan bajarilgan ishlar Forma-3 hisoboti va topshirish-qabul qilish dalolatnomasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi taqdim qilingan va 6 ball qo‘yilgan, “Emergensy servisi” MCHJ bajarilgan ishlar Forma-3 hisoboti taqdim qilingan, lekin topshirish-qabul qilish dalolatnomasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar taqdim qilinmagan bo‘lsada eng yuqori 8 ball qo‘yilgan. “Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseri tomonidan “Bajarilgan ishlarni Forma-3 hisoboti” birinchi mezonda ham so‘ralgan bo‘lib, birinchi mezonda “Qilichbek plyus og‘abek” MCHJga 8 ball qo‘yilganligi, ushbu shartda esa ballar kamaytirilgan holda 5 ball qo‘yilganligi ko‘rinmoqda.

Oltinchi mezon, “Tashkilotning mashina va mexanizmlari to‘g‘risidagi ma’lumot” taqdim qilishi shartiga ko‘ra baholashda baholashda “Qilichbek plyus og‘abek” MCHJga 5 ball, “Emergensy servisi” MCHJ 7 ball va “Yan ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish” XKga 5 ball bilan baholangan. Mazkur baholash jarayonida “Qilichbek plyus og‘abek” MCHJ tomonidan tashkilotning mashina va mexanizmlari ro‘yhati, texnikalar fotosuratlari va texnikalarning texnik hujjatlari (texpasport)lari to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar taqdim qilingan va 5 ball bilan baholangan. “Emergensy servisi” MCHJ tomonidan mashina va mexanizmlarning ijara shartnomasi hamda texnikalar fotosuratlari taqdim qilingan va 7 ball bilan baholangan. Mazkur shart uchun baholash jarayonida buyurtmachi tomonidan “Qilichbek plyus og‘abek” MCHJ taqdim qilingan xujjalalar ya’ni tashkilotning mashina va mexanizmlari ro‘yhati, texnikalar fotosuratlari va texnikalarning texnik hujjatlari (texpasport)lari to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar taqdim qilinganligi, “Emergensy servisi” MCHJ tomonidan mashina va mexanizmlarning ijara shartnomasi hamda texnikalar fotosuratlari taqdim qilinganligi, lekin “Emergensy servisi” MCHJning texnikalari ijarada ekanligi va texnikalarning texnik hujjatlari (texpasport)lari to‘g‘risidagi ma’lumotnomalari taqdim qilinmaganligini inobatga olinmagan holda baholanganligi ko‘rinmoqda.

Sakkizinch mezon, “2022 yilda ishtirok etgan tanlovlari to‘g‘risida etender.uzex.uz portalidan skrenshot ko‘chirma” taqdim qilinishi shartiga ko‘ra baholashda “Qilichbek plyus og‘abek”

MCHJga 5 ball, "Emergensi servisi" MCHJ 8 ball va "Yan ko'p tarmoqli ishlab chiqarish" XKga 5 ball bilan baholangan. Mazkur baholash jarayonida "Qilichbek plyus og'abek" MCHJ hamda "Emergensi servisi" MCHJlar tomonidan 2022 yilda ishtirok etgan tanlovlari to'risida etender.uzex.uz portalidan skrenshot ko'chirma taqdim qilingan bo'lsada, "Emergensi servisi" MCHJga 8 ball va "Qilichbek plyus og'abek" MCHJga 5 ball bilan baholanganligi ko'rinoqda.

To'qqizinchi mezon, "Tashkilotni ishchi xodimlari tajribasi va malakasi to'g'risida ma'lumot Diplom va sertifikatlaridan ko'chirma" taqdim qilinishi shartiga ko'ra baholashda "Qilichbek plyus og'abek" MCHJga 5 ball, "Emergensi servisi" MCHJ 7 ball va "Yan ko'p tarmoqli ishlab chiqarish" XKga 4 ball bilan baholangan. Mazkur baholash jarayonida "Qilichbek plyus og'abek" MCHJ hamda "Emergensi servisi" MCHJlar tomonidan ishchi xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim qilingan bo'lsada, "Emergensi servisi" MCHJga 5 ball va "Qilichbek plyus og'abek" MCHJga 7 ball bilan baholanganligi ko'rinoqda.

O'n uchinchi mezon, "Tashkilotni ishchi xodimlari to'g'risida ma'lumot Mehnat elektron tizimidan olingan ma'lumotlar" taqdim qilishi shartiga ko'ra baholashda baholashda "Qilichbek plyus og'abek" MCHJga 5 ball, "Emergensi servisi" MCHJ 7 ball va "Yan ko'p tarmoqli ishlab chiqarish" XKga 4 ball bilan baholangan. Mazkur baholash jarayonida "Qilichbek plyus og'abek" MCHJ hamda "Emergensi servisi" MCHJlar tomonidan ishchi xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim qilingan bo'lsada, "Emergensi servisi" MCHJga 5 ball va "Qilichbek plyus og'abek" MCHJga 7 ball bilan baholanganligi va ko'rinoqda.

Yuqoridagi baholash jarayonlarini o'rganish natijasida, xarid komissiyasi a'zolari tomonidan ishtirokchilarining takliflarini subyektiv (asoslantirilmagan) omillar asosida baholashga yo'il qo'yilganlik holatlari ko'rinoqda.

Tanlovning yakuniy qismida "Qilichbek plyus og'abek" MCHJga 86,68 ball, "Emergensi servisi" MCHJ 100 ball va "Yan ko'p tarmoqli ishlab chiqarish" XKga 68,56 ball to'plagan. Yakuniy natijaga ko'ra "Qilichbek plyus og'abek" MCHJ umumiy 86,68 ball bilan tanlov g'olib bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini 10-moddasi "Raqobat va xolislik prinsipi" 2- xatboshisida "Davlat xaridlarining xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishdagi, shuningdek eng maqbul variant foydasiga yakuniy qaror qabul qilishdagi beg'arazlikni nazarda tutadi" va ushbu qonunning 20-moddasi "Xarid komissiyasi" 2- xatboshisida "Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat"ekanligi va ushbu qonunning 46-moddasi "Davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar" 1-band 2-xatboshisida "ishtirokchilarini kamsitishga, boshqa ishtirokchilarga zarar etkazgan holda bir ishtirokchiga imtiyozlar yoki preferensiyalar taqdim etishga yo'il qo'yilmasligi kerak" ekanligi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagi holatlар natijasida Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseri tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini 10-moddasi "Raqobat va xolislik prinsipi" 2 xatboshisi, 20-moddasi "Xarid komissiyasi" 2 xatboshisi, 46-moddasi "Davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar" 1-band 2-xatboshisida belgilangan talablar hamda O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunini 14-moddasi ("Tanlov savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar" moddasini birinchi xatboshisi, ya'ni savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish) buzilganligi holatlari (belgilariga)ga yo'il qo'yilganligi mayjudligi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 12 oktabrdagi 225-son qarori bilan tasdiqlangan Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida nizomning 22-bandiga asosan maxsus Komissiya

QAROR QILADI:

1. Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseri (INN: 200666811, Manzili: Qashqadaryo viloyati, Qarshi sh., O'zbekiston ko'chasi, 85-uy) O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini 10-moddasi "Raqobat va xolislik prinsipi" 2 xatboshisi, 20-moddasi "Xarid komissiyasi" 2 xatboshisi, 46-moddasi "Davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar" 1-band 2-xatboshisida belgilangan talablar hamda O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunini 14-moddasi ("Tanlov savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar" moddasini birinchi xatboshisi, ya'ni savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish) buzilganligi holatlari (belgilari) bo'yicha Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseriga nisbatan ko'zda tutilgan qonunbuzarlik holatlari sodir etilgan deb topilsin.

2. Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanseriga O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini 10-moddasi "Raqobat va xolislik prinsipi" 2 xatboshisi, 20-moddasi "Xarid komissiyasi" 2 xatboshisi, 46-moddasi "Davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar" 1-band 2-xatboshisida belgilangan talablar hamda O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunini 14-moddasi ("Tanlov savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar" moddasini birinchi xatboshisi, ya'ni savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish) buzilganligi holatlari (belgilari) da ko'zda tutilgan qonun buzilishini bartaraf etish va kelgusida yo'l qo'ymaslik, shuningdek Qashqadaryo viloyat 1-sonli asab-ruhiy kasalliklar dispanserining 174678-raqamli lot bo'yicha dispanser hududida tashkilot bino va inshoatlarini joriy ta'mirlash ishlari uchun rasmiylashtirilgan 2022 yil 9 noyabrdagi tanlov bayonini 20 kun muddatda bekor qilish va qayta tanlov o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari maxsus portaliga e'lon berish hamda 20 kun muddatda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hududiy boshqarmaga yozma axborot taqdim etish bo'yicha ko'rsatma berilsin.

3. Mazkur qaror ustidan bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi hay'ati yoki tegishli ma'muriy sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Maxsus komissiya raisi:



S.Sadikov

Komissiya a'zolari:

A.Oripov

M.Xamraev

O'.Himmatov

M.Majidov